

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi
Ilmiy metodika xizmati**

**USLUBIY MATERIAL: KITOB KO'RGAZMALARINI
TASHKIL ETISH TAJRIBASI**

*(mavzuni tanlash, mo'ljallangan maqsadni aniqlash, struktura va
dizaynni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar)*



Metodik tavsiyanoma

Andijon-2024

Kitob ko'rgazmasi ma'naviyat targ'ibotidir

Kutubxonalarda ommaviy tadbirlarning eng qulay va eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri va adabiyotlar targ'ibotining keng qamrovli usuli kitob ko'rgazmasidir. Bugungi ko'rgazma faoliyati nafaqat uning dizayni va tashkil etilishi, balki yaratilishini ham o'z ichiga oladi. Bu ijodiy jarayon. O'tmishda ko'rgazmalar oddiy tashkil etilgan bo'lsa, ayni paytda kitobni munosib ko'rsatish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud.

Ko'rgazmalar o'quvchilarga qo'shimcha bilim olish, taqdim etilayotgan mavzuga qiziqishini shakllantirish va kengaytirish imkonini beradi. Ko'rgazmalarda adabiyotni bevosita ko'rsatish har qanday tashrif buyuruvchilarning e'tiborini o'ziga tortadi.

Biroq, ko'rgazma to'g'ri tashkil etilmasa, mavzu aniq yoritilmasa yoki qulay joyga joylashtirilmasa ishlamaydi. Quyida viloyatda mavjud tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari tomonidan tashkil etilayotgan kitob ko'rgazmalarida eng ko'p uchraydigan xatolar bilan tanishamiz. Ular:

- ma'lumotlarning haddan tashqari ko'pligi;
- bir xil ma'lumotlar aks etgan manbalarning jamlanishi;
- eskirgan kitoblarning yangilari bilan yonma-yon va/yoki tartibsiz taqdim etilishi;
- aksessuarlarning ko'pligi (ya'ni, ko'rgazmalari qurollar, o'yinchoqlar, matolar va hokazo), shu jumladan ko'rgazma mavzusiga mos kelmaydiganlarining mavjudligi;
- o'qib bo'lmaydigan shriftlardan foydalanish, tushunarsiz sarlavha (yorug'lik yetishmasligi, harflarning xiraligi, "sakrab turgan" harflar);
- eskirgan rasmlar va portretlar (ranglarning buzilishi, bir-biriga chaplanib ketishi)
- matnlardagi imloviy xatolar va sarlavhada matnning "qiyshiq" joylashishi,
- ma'lumotlarning juda kamligi;
- mavzudan tashqari ma'lumotlarning berilishi;
- ko'rgazmaning kitobxon uchun qulay joyda emasligi (baland, yetib bo'lmaydigan joyda, tor yo'lakda).

Demak, ko'rgazma tashkil etishda yuqorida ko'rsatilgan xato va kamchiliklarga diqqatli bo'lishingiz kerak, chunki beparvolik bilan amalga oshirilgan ko'rgazma ishlamaydi va biz kutgan ijobiy natijani bermaydi.

Viloyatdagi barcha tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari tomonidan 2023 yilning 1-yarim yilligida 808 marta kitoblar ko'rgazmasi, 33 ta virtual ko'rgazmalar tashkil etildi. Quyidagi sxemada ko'rgazmalarda tavsiya etilgan adabiyotlarning o'qilishi samaradorligini ko'rishimiz mumkin:

Ko'rgazma - 808		
Tavsiya etilgan adabiyotlar - 12638	Foydalanuvchilar - 13657	Kitob berilishi - 26460

Yuqoridagi sxemadan jami 808 marta tashkil etilgan adabiyotlar ko'rgazmalarida 12638 nusxa adabiyotlar tavsiya etilganligini, bu adabiyotlardan 13657 nafar kitobxonlar foydalanganligini va ular tomonidan adabiyotlarning 26460 marta o'qilganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'rgazmalar samaradorligini tahlil qilganimizda, (kitob berilishi/tavsiya) taqdim etilgan adabiyotlarning jami 2 martadan berilganligi aniqlandi. Bu ko'rgazmalarning to'g'ri va sifatli tashkil etilmaganligini anglatadi, chunki ko'rgazmalarda tavsiya etilayotgan adabiyotlarning kitobxonlar tomonidan 1-4 martagacha o'qilishi eng past ko'rsatkich hisoblanadi. Ko'rgazmalarga kreativ yondashgan holda yanada qiziqarli, yorqin va sifatli tashkil etilganida, taqdim etilayotgan adabiyotlarni 8-10 martagacha o'qilishiga erishishimiz va eng yuqori darajani ko'rsatishimiz mumkin bo'lar edi.



Viloyatdagi ba'zi axborot-kutubxona markazlari tomonidan tashkil etilgan ko'rgazmalardan misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 7-fevraldagi PQ-46-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "O'z huquqlaringizni bilib oling" mavzusida tashkil etilgan kitob-rasmlı ko'rgazmani olaylik. Rasmdan ko'rishimiz mumkinki, mazkur ko'rgazma uchun tanlangan sarlavha yo'q va boshqa nom ostida berilgan sarlavha ham tiniq ko'rsatilmagan, mavzu bo'yicha iqtiboslar keltirilmagan, adabiyotlar yetarli emas. Tavsiya: Bu ko'rgazmaning mazmuni juda katta bo'lib, uni bo'limlarga ajratgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

1. Ta'lim olish va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlari, ayollar va bolalar, nogironlar va mahkumlar huquqlari bo'yicha adabiyotlarni tanlab, rafning har bir qavatiga huquqlar bo'limini ajratgan holda qo'yish;

2. Mavzular bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida berilgan alohida bob va moddalarni chop ettirish va adabiyotlar yoniga joylashtirgan holda ko'rsatish;

3. Prezidentimizning asarlari, ma'ruzalari, qarorlarida har bir soha bo'yicha inson huquqlariga asoslangan so'zlaridan iqtibos sifatida foydalanish va mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar namoyon etilgan rasmlarni qo'yish kerak.

Yana bir misol, 26-aprel - xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 69 yilligi munosabati bilan "Muhammad Yusuf - e'zozda" mavzusida o'tkazilgan adabiy-musiqiy kecha doirasida tashkil etilgan "Oltin qalam sohibi" mavzusidagi kitob ko'rgazmasida ham kamchiliklar mavjud. Masalan, Muhammad Yusuf ijodi juda ko'p manbalarda keng yoritilganligi, ko'plab rasmlı plakatlarning mavjudligiga qaramay, ko'rgazmada juda kam manbalardan foydalanilgan va yetarli ma'lumotlar ko'rsatilmagan.



Bizning vazifamiz ko'rgazmani yorqin, qiziqarli va turli usullardan foydalangan holda tashkil qilishdir. Mavzu bo'yicha kitob, broshyura, davriy nashrlar va boshqa manbalar ko'p bo'lsa ko'rgazmani nostandart usulda tashkil etish mumkin. Masalan, kitoblarni aylana holda ustma-ust qo'yish va turli shakllarda ko'rsatish.

MDH tarkibidagi davlatlar kutubxonalari tomonidan o'zgacha uslubda qiziqarli va yorqin tarzda tashkil etilgan kitob ko'rgazmalari bilan yaqindan tanishish, ularning ish faoliyatini o'rganish har bir o'z ustida ishlaydigan kutubxonachiga ko'rgazmalarni sifatli va samarali tashkil etishga zamin yaratadi. Quyida Rossiya tarkibidagi Chuvash Respublikasi Mariinsko-Posadskiy tumani markaziy kutubxonasi tomonidan tashkil etilgan kitob ko'rgazmalaridan lavhalarni ko'rishingiz mumkin.



Ko'rgazmalar nafaqat taqdim etilgan nashrlarga e'tiborni qaratishi, balki o'quvchilarning bilim faolligini faollashtirishi, his-tuyg'ularni uyg'otishi va kitobxonni kitobni olishga undashi kerak. Ko'rgazmalarda kutubxonachilar kitoblar, davriy nashrlardan tashqari mavzuga mazmun jihatidan aloqador bo'lgan barcha turdagi illyustrativ materiallarni, aksessuarlarni joylashtiradilar va uni fon sifatida to'ldiradilar.

Biroq, kitob ko'rgazmasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, kitob hali ham diqqat markazida bo'lishi kerakligini unutmaslik kerak va barcha atributlar kitobni targ'ib qilishga yordamchi va ma'lumotlarga qo'shimchadir. Ko'rgazmaning asosiy maqsadi kitoblar va boshqa turdagi hujjatlarni taqdim etishdan iborat. Yaxshi dizayn, turli materiallar va aksessuarlar maqsad emas, balki faqat muammoni hal qilishga yordam beradigan vositadir. Shuning uchun ular kitobni yashirmasliklari kerak, aksincha, unga e'tibor qaratishlari kerak.

Ana endi, ko'rgazmalarni to'g'ri va sifatli tashkil etishga oid bir qancha usullar bilan tanishamiz.

Ko'rgazmaning samarasi, ta'siri uni tayyorlash sifatiga bog'liq. Kitob ko'rgazmasini tayyorlashda avvalo mavzu tanlanadi. Bunda muhim sanalar, dunyo va mamlakat miqyosida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, fan

va madaniyat yutuqlari kabi dolzarb masalalardan biri tanlab olinadi. Shuningdek, ko'rgazmalar boshqa ommaviy tadbirlarga qo'shimcha sifatida ham tashkil qilinadi. Muhim mavzu tanlab olingach, kitob fondiga murojaat etiladi. Bu yerda u yoki bu adabiyotning yo'qligi yoki yetarli emasligi kabi muammolarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun, avvalo, fondni mavzu bo'yicha tahlil qilib, shundan keyingina ko'rgazma tayyorlanadi. Kitobxon uchun ko'rgazmaning ahamiyati unda ko'rsatilayotgan adabiyotlar bilan belgilanadi. Adabiyotlar avvalo g'oyaviy, badiiy jihatdan puxta, yangi, kitobxon talabiga mos bo'lishi kerak. Tanlangan adabiyotlar chuqur o'rganilib, tizimlashtiriladi. Shundan keyin ko'rgazmani shakllantirish bosqichiga o'tiladi. Ko'rgazma kitobxonga estetik ta'sir etadigan, uning diqqatini kitobga qaratadigan, kerakli yo'nalishga sola oladigan darajada shakllantirilishi zarur.

Kitob ko'rgazmalarni shakllantirishda bir necha jihatlarni hisobga olish kerak.

Kutubxonalarda ko'rgazmalarni tashkil etishda qo'yiladigan asosiy talablar: qulaylik (komfort), ko'rinish (dizayn), samaradorlik hisoblanadi. Komfort ko'rgazmada kitoblarni qulay joylashtirish, ular bilan yaqindan tanishish hamda dam olish uchun kitobxonlarga qulay joyning mavjudligi, qo'shimcha yoritish uskunalaridan foydalanish (agar kerak bo'lsa) nazarda tutiladi.

Ko'rgazmani tashkil etishda ko'rinish (dizayn) ham eng samarali usuldir. Ko'rgazmani turli shaklda (archa, kitob o'qib o'tirgan inson, uy, harf va hokazo) tashkil etish mumkin. Bu har qanday kitobxon diqqatini o'ziga tortadi. MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasi Tomsk bolalar kutubxonasi tomonidan kreativ tarzda tashkil etilgan quyidagi kitob ko'rgazmalari kitobxonlar qatorida mutaxassislarni ham jalb etishi tabiiydir.



1.Maqsad va kitobxonlar guruhini aniqlash.

Ko'rgazmada siz ko'rgazmani kimlar uchun loyihalashtirayotganligingiz aniq kitobxonlar manziliga ega bo'lishi kerak: kichik yoki kattaroq yoshdagi bolalar uchun, talabalar, muhandislar, shifokorlar yoki kichik tibbiyot xodimlari uchun va yoki ota-onalar uchun.

a/ bolalar uchun tashkil etilgan kitob ko'rgazmalari kattalar uchun yaratilgan ko'rgazmalardan farq qiladi. Ular yorqin, ko'zga ko'rinadigan bo'lishi kerak. Bolalar uchun ko'rgazmalar o'yin elementlarini (jumboqlar, topishmoqlar, krossvordlar, boshqotirmalar) o'z ichiga olishi mumkin. Kutubxonachi illyustratsiyali, rang-barang muqovalari kitoblarni diqqat bilan tanlashi va ularni har qanday yoshdagi bolalar javondan erkin olib qo'yishi mumkin bo'lgan tarzda joylashtirishi lozim. Ko'rgazma yaqinida bolalar uchun bo'sh joy yaratilishi maqsadga muvofiqdar. Sababi, ular nafaqat tanlangan kitobni ko'rishlari, balki o'yinda ishtirok etishlari, ko'rgazmada ko'zda tutilgan vazifalarni bajarishlari mumkin.

b/ shifokorlar uchun tashkil etiladigan ko'rgazmada tibbiyot fanining rivojlanishining turli bosqichlari va tendentsiyalarini, davolash darajasini, tibbiy muolajalar o'tkaziladigan joylarni, shuningdek, shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi hujjatlar, ma'lumotlarga asoslangan adabiyotlar, entsiklopediyalardan foydalanish mumkin. Ko'rgazma aniq bir kasallikni davolash, simptomlarini aniqlash va bartaraf etish uchun (ko'z

kasalliklari, buyrak, yurak, o'pka kasalliklari va hokazo) tegishli bo'lgan manbalar asosida alohida tashkil etiladi.

2. Ko'rgazma mavzusini tanlash.

1. Ko'rgazma mavzusiga oydinlik kiritish. Ko'rgazma mavzusi ikkita talabga javob berishi kerak. Agar biz ommaviy tadbirga hamrohlik qiladigan ko'rgazma tashkil qilsak, u tadbir mavzusiga aniq mos kelishi va uni to'ldirishi kerak.

- Birinchidan, mavzu bugungi kunga tegishli (dolzarb) va kitobxonlar uchun qiziqarli bo'lishi kerak.

- Ikkinchidan, mavzu aniqlanishi kerak. Masalan, "Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati" mavzusidagi ko'rgazmaning mazmuni juda katta, shuning uchun uni aniqlashtirish va mavzu sifatida buyuk adib hayotining ma'lum bir davri "Yosh Bobur", "Hindistonga yurish" kabi janr yoki mavzuni tanlash yaxshidir. Bundan tashqari, "Buyuk o'zbek shoiri", "Mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi", "Boburiylar sulolasi va imperiyasining asoschisi". Ko'rgazmaning nomi reklama hisoblanadi, shuning uchun nomlar jozibador bo'lishi kerak.

3. Kitoblarni joylashtirish tartibi. Kitob raflari va javonlar asosiy element hisoblanadi. Shuning uchun ko'rgazmanikaerga joylashtirishni oldindan o'ylab ko'rish kerak: raf, kitob javoni, stol, shisha vitrinalardan foydalansa bo'ladi. Ba'zan 3 ta kitob javoni yoki raflar birlashtiriladi.

Ko'rgazma uchun 1-3 ta kitob raflari yoki javonlari olinadi. Har bir tokchasida 6-8 tadan adabiyot joylashtirilishi kerak. Kitob raflarini P shaklida, yoysimon, to'lqinsimon, burchakli, shaxmatsimon joylashtirish mumkin.



Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazining «Ma'naviy-ma'rifiy va yoshlar bilan ishlash sektori» tomonidan «Til bilgan – dunyoning sirini ochadi» mavzusida tashkil etilgan kitob ko'rgazmasi





Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi fondiga Toshkent Gyote instituti tomonidan sovg'a qilingan yangi nemis tilidagi adabiyotlar asosida tashkil etilgan adabiyotlar ko'rgazmalari

4. Ko'rgazma konsepsiya (loyiha)sini ishlab chiqish. Konsepsiya – tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilovchi va uni o'tkazish yo'llarini ko'rsatuvchi asosiy g'oyadir. Ko'rgazma kontsepsiyasi ko'rgazma mavzusini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ko'rgazma uchun materiallar sinchkovlik bilan tanlanishi kerak, dizayn vositalarini ko'rib chiqish darkor. Shu bilan birga, ko'rgazmaning barcha elementlari aniq maqsadga ega bo'lishi, mo'ljallangan taassurotni keltirib chiqarishi, o'quvchini aniq xulosaga olib kelishi kerak. Ko'rgazma kontsepsiyasini ishlab chiqishda aniq maqsadni belgilaydigan tasvir, yangilik, ta'sir qilishning zamonaviy usullaridan foydalanish va ko'rsatib berish alohida ahamiyatga egadir. Bir so'z bilan aytganda, kontsepsiyada kutubxona ekspozitsiyasining mazmuni aks ettirilishi kerak.

Yaxshi o'ylangan ko'rgazma loyihasi 3 savolga javob berishi kerak:

**Nima
demoqchisiz?**

(Mavzu, mundarija)

**Qanday namoyish
etmoqchisiz?**

(Shakl, ma'lumot
berish usuli)

Kimga qaratilgan?

(Kitobxon manzili,
maqsad)

5. Adabiyotlarni aniqlash, tanlash va joylashtirish. Bibliografik va uslubiy qo'llanmalar, katalog va kartotekalar yordamida biz ushbu mavzu bo'yicha kutubxonadagi barcha hujjatlarni - kitoblar, davriy nashrlardagi maqolalar, audio va video materiallar hamda boshqalarni aniqlaymiz. Adabiyotlarni joylashtirishda ularning mantiqiy xususiyati hisobga olinadi. Adabiyotlar mavzuni yoritib bera olish darajasida joylashtirilishi kerak. Ya'ni, yoritib berilayotgan voqeaning ahamiyati, rivojlanish vaqti, geografiya, tarix va hokazolarga qarab tartibga solinishi kerak. Masalan, 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan ko'rgazma tashkil etmoqchisiz. Buning uchun, ushbu sananing ahamiyatini ochib beruvchi rasmlar, iqtiboslar, kitoblarni joylashtirasiz. Keyin bu sana ilk bor qaysi mamlakatda qachon, kim tomonidan joriy etilganligini ko'rsatib beruvchi rasmlar, iqtiboslar va adabiyotlarni joylashtirishingiz mumkin bo'ladi. Ularni joylashtirishda masalani tizimli yoritish tartibi qo'llaniladi. Tanlangan rasmlar adabiyot mazmuniga mos ravishda kitob bilan yonma-yon joylashtiriladi. Ayrim sahifalardagi portretlar, rasmlar, rangli tasvirlarni ochib qo'yish mumkin. Kitoblar ustma-ust qo'yilmaydi. Journallardan, to'plamlardan, asarlar to'plamining ayrim jildlaridan olingan maqolalar ikki usulda ko'rsatiladi. Kitob muqovasiga muallif nomi, maqolaning sarlavhasi va betlari ko'rsatilgan kartochka qistirib qo'yiladi yoki jurnalning o'sha maqola boshlangan vapag'i ochib qo'yiladi va kartochkada jurnal nomi, nashr yili, asarlar to'plamining nomi, jild soni hamda betlari ko'rsatiladi. Yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va jozibali ko'rinishga ega bo'lgan adabiyotlarga ustunlik beramiz va ularni ko'rgazmaning eng ko'zga ko'ringan joyiga joylashtiramiz. Davriy nashrlar kitoblardan keyin teskari

xronologiyada joylashtiriladi, ya'ni birinchi navbatda yangi material, keyin esa eskisi ko'rsatiladi. Masalan, "Andijonnoma" gazetasida chop etilgan maqolani ko'rsatmoqchisiz, buning uchun kitoblar, broshyuralar va ulardan so'ng gazeta yoki jurnalning eng so'nggi yangi soni, keyin esa avvalgi eski sonlari qo'yiladi.

6. Ko'rgazma uchun sarlavha aniqlash. Kitobxon diqqatini tezda jalb etadigan element ko'rgazmaning sarlavhasidir. U ko'rgazmaga ma'naviy ypg'y beradi.

Sarlavha quyidagicha bo'lishi kerak:

- mavzuni to'liq yoritishi (axborot sig'imi)
- qisqa (3-4 so'zdan iborat)
- noan'anaviy (o'ram, kitob, gul shaklida...) bo'lishi maqsadga muvofiq.

Sarlavha ibora, aforizm, maqol, so'z, qo'shiq, she'rdan bir satr bo'lishi mumkin: "Vatan qayerdan boshlanadi?", "Andadir jonim mening".

Sarlavha o'lchami va unga tanlangan rang ko'rgazmaning mazmuniga mos bo'lishi shart.



1-oktabr – Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan hamda beshta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida Andijon shahar Industrial pedagogika kollejida o'tkazilgan katta bayram tantanasi doirasida Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Ma’naviyat xalqning kuch-qudratidir” mavzusida kitob - rasmlari ko'rgazmasi.



Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi “Umumiy o'quv zali” sektori tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligiga bag'ishlab “Konstitutsiya-baxtimiz qomusi” mavzusida tashkil etilgan kitob ko'rgazmasi.

7. Iqtibos, matn va illyustrasiyalardan foydalanish. Ko'rgazma mavzusiga mos tanlangan iqtibos, qisqa matn va turli illyustratsiyalar ko'rgazmaning ta'sirchanligini oshiradi. Ko'rgazma nomiga va alohida har bir bo'lim uchun iqtibos tanlanadi. Ularni yozishda mazmunga mos holda rang tanlanadi. Shrift belgilab olinadi. Iqtibos shrifti sarlavha shriftidan kichikroq bo'lishi va ko'rgazmadagi ranglardan birini ko'rsatishi kerak. Lekin faqat ikki-uchta rang tanlanishi kerak, undan ortig'i kitobxonni charchatadi.

8. Ko'rgazma dizaynida badiiy elementlardan tashqari (tasvirlar - portretlar, plakatlar, reproduksiylar, fotosuratlar va boshqalar) quyidagilardan foydalanish mumkin:

- dekorativ elementlar - gullar, pardalar, o'yinchoqlar;
- tabiiy material - konuslar, qobiqlar, toshlar, ildizlar, novdalar;
- ijodiy ish - chizmalar, hunarmandchilik, sharhlar, mini insholar;
- shaxs yoki davr obrazini yaratishga yordam beruvchi narsa va buyumlar –shamlar, durbin, askar shlyapasi, maketlar va boshqalar.

Dizaynini yaratayotganda mutanosiblikka rioya qilish lozim.

Qo'shimcha bezak mavzuga mos kelishi kerak. Masalan, 9 – may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan ko'rgazma uchun qo'shimcha bezakka o'yinchoq tank, o'yinchoq multiqlar, qurollar, askar xati va hokazolarni qo'shish mumkin.



Rasm internet saytidan olindi

8. Ko'rgazmaga hajmi uncha katta bo'lmagan kartoteka ham tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Unda ko'rgazmadan joy olmagan adabiyotlarning (mavzu doirasida) tanlab tavsiflangan kartochnalari joylashtiriladi. Kartotekada ushbu mavzu bo'yicha kutubxona fondidan qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, audio materiallar joylashtiriladi.

9. Kitob ko'rgazmasi samaradorligini tahlil qilish. Juda muhim qadam bo'lib, kitobxonlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi. Birinchidan, ko'rgazmalar samaradorligi kartotekasini yuritish. Bunda, ko'rgazmaga qo'yilgan barcha adabiyotlar haqida ma'lumotlar alohida kartochkalarga yoziladi: tanlagan adabiyotning titul varag'idan adabiyotning qaysi bo'limga tegishli belgisi, muallifi, adabiyot nomi, nashriyoti va nashr etilgan yili olinadi. Ko'rgazmadagi adabiyotdan foydalangan kitobxonning raqami va sanasi shu adabiyotning kartochkasi orqasiga qayd etib boriladi.

Kitob ko'rgazmasining samaradorlik koeffisienti ko'rgazmadan kitob berish va ko'rgazmaga qo'yilgan hujjatlar sonini (kitob berish soni/taqdim etilgan adabiyotlar soni) solishtirish yo'li bilan aniqlanadi va uch darajaga taqsimlanadi:

- past – 1-4 nusxada berilishi;
- o'rtacha - 5–7;
- yuqori - 8–10.

Ikkinchidan, samaradorlikni hisobga olish. Buning uchun "Kutubxona kundaligi" da alohida ustun ajratilgan bo'lib, har kuni kitobxonlar tomonidan ko'rgazmadan olingan hujjatlar soni qayd etiladi. Ko'rgazmada taqdim etilgan hujjatlar soni va chiqarilgan sonni taqqoslab, "kitob ko'rgazmasining samaradorligi koeffitsienti" ni hisoblang va xulosa chiqaring.

Agar samaradorlik past bo'lsa, ko'rgazma nima uchun talabga ega emasligini aniqlash kerak. Buning uchun ko'rgazmani tashkil etishda mavzu tanlashdan boshlab dizayngacha bo'lgan barcha bosqichlarni tahlil qilamiz, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlaymiz. Muvaffaqiyat sabablarini aniqlash orqali ham yuqori samaradorlik o'rganiladi.

Ko'rgazma faoliyati samaradorligini tahlil qilib, har bir yangi ko'rgazmani yorqin, mazmunli, kitobxonlar uchun manfaatli va esda qolarli darajada tashkil etishga erishiladi.

Kitob ko'rgazmasi turlari:

Kutubxona faoliyatida kitob ko'rgazmasi eng asosiy ishlardan biri hisoblanadi. Kitob ko'rgazmalarining an'anaviy turlari faol qo'llaniladi. Ko'rgazma turlari:

- Yangi adabiyotlar ko'rgazmasi;
- Dolzarb mavzular va muammolarga bag'ishlangan ko'rgazma;
- Shaxsga oid ko'rgazmalar;
- Muhim va unutilmas sanalar uchun ko'rgazmalar.

Har bir ko'rgazmaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Yangi adabiyotlar ko'rgazmasining asosiy maqsadi - foydalanuvchilarni yangi hujjatlar – kitoblar, gazetalar, jurnallar, audio, video, fotomateriallar, kompakt disklar va boshqalar bilan tanishtirish. Ko'p hollarda bu ko'rgazmalar tarkibi universal hisoblanadi. Ularda turli bilim sohalariga oid kitoblar mavjudligini inobatga olgan holda, ko'rgazmadagi adabiyotlar sistemali joylashtiriladi. Ko'rgazmalarni “Yangi kitoblar”, “Tanishing! Yangi adabiyotlar!” deb nomlash namunaga aylanib qolgan, shuning uchun yangi ko'rgazma nomlarini kashf etish kerak, masalan: “Yangi kitoblar paradi”, “Diqqat! Yangi kitoblar!”, “Assalomu alaykum! Men – yangi kitob”, “Bizga yangi kitoblar keldi”, “Kitob javonida yangi kitoblar” va boshqalar.

Yaxshi bilamizki, kutubxonalarda eng mashhur ko'rgazma turi bu mavzuli ko'rgazma hisoblanadi. Mavzuli ko'rgazma ma'lum bir mavzu bo'yicha eng zarur adabiyotlarni ochib beradi. Sarlavha tanlashda asosiy mezon taklif etilayotgan mavzuning dolzarbligi va ahamiyati hisoblanadi. Agar u juda keng bo'lsa va bosqichma-bosqich oshkor qilishni talab qilsa, raf joyini oldindan aniqlab, bir necha oyga rejalashtirish yaxshiroqdir. Agar bu ko'rgazmalar kitobxonlarga manzur bo'lsa, yil davomida tashkil etilishi mumkin.

Virtual kitob ko'rgazmasi bu internet tarmog'ida veb-texnologiyalardan foydalangan holda matbuot va bosma nashrlarning, shuningdek kutubxona xizmatlaridan masofadan turib foydalanuvchilar uchun ko'rish, tanishish va ulardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan elektron resurslardir. Bunday ko'rgazmalar mobil, ixcham, informatsion va dolzarbdir. Ko'rgazmadagi nashrlarning virtual taqdimoti ularning mazmunini ochib beradi, unda elektron shaklda mavjud bo'lgan va internet orqali erkin foydalanish mumkin bo'lgan bibliografik, entsiklopedik, faktografik materiallar bo'lishi talab etiladi. Virtual ko'rgazmalar kutubxona imidjini shakllantirish va saqlash, fond mazmunini ochib berish, kutubxona

xizmatini rivojlantirish va yaxshilashga imkon beradi. Shuningdek, ular kutubxona va kitob mutolaasiga qiziqqan o'quvchilarni jalb qilish, muzokaralarda faol ishtirok etish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Elektron ko'rgazmalar ommaviy tadbirlarning turli shakl va usullariga hamroh bo'lishi mumkin. Masalan, mashhurlar (sport olimpiadasi g'oliblari, Davlat ordeni va medal sohiblari) bilan qiziqarli uchrashuvlar, kitob taqdimoti, mavzuli kechalar, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuv.

Virtual ko'rgazmaning afzalliklari va imkoniyatlari:

-ko'rgazmani ko'rish uchun o'quvchi kutubxonada bo'lishi shart emas, internetga kirishi yetarli;

-kitobxon istalgan vaqtda ko'rgazmani tomosha qilishi, undan foydalanishi mumkin;

-an'anaviy ko'rgazmadaga kabi katta joy egallamagan holda ko'proq adabiyotlarni ko'rsatish imkoniyati;

-har bir hujjatga konspekt, referat, mundarija nusxasi ilova qilinishi mumkin, va/yoki matn parchalari, rasmlar, asarning yaratilish tarixi, tavsifi, audio va video parchalar ko'rsatilish mumkin;

-kompyuter texnologiyasi virtual ko'rgazmani jonli va dinamik tarzda yaratadi;

-virtual ko'rgazmada taqdim etilgan hujjatlarga zarar yetishi xavfi yo'q;

-internetga joylangan virtual ko'rgazma uzluksiz ishlashi mumkin.

Virtual kitob ko'rgazmalarini taqdim etishning turli shakllari mavjud. Ular uchun alohida dasturlar va onlayn xizmatlar bor. Yangi boshlayotgan foydalanuvchilar uchun Power Point, Canva dasturidan foydalanishni tavsiya etamiz. Bundan tashqari, Word, Mindmeister, MS Publisher, Google Slides dasturlaridan foydalangan holda virtual ko'rgazmalar yaratishingiz mumkin.

- Taqdimot (Power Point, Canva);
- Muqova va qisqacha izohlarning slayd taqdimoti (slayd-shou);
- Musiqa hamrohligidagi kitoblar (Power Point);
- Interfaol plakat ko'rinishdagi kitoblar ko'rgazmasi (Power Point bilan);
- Xronologiya ko'rinishida istalgan muallifning kitoblari ko'rgazmasi (Power Point);

- 3D kitob ko'rinishidagi kitoblar ko'rgazmasi (MS Publisher);
- Ko'rgazma - virtual doska (Google Slides);
- Ko'rgazma - plakat (MS Publisher).

Virtual ko'rgazma yaratish haqida o'ylar ekansiz, siz uzoq va mashaqqatli, biroq qiziqarli ishga tayyor bo'lishingiz kerak. Har qanday ko'rgazma materialiga asoslanib, uning elektron variantini ko'rib chiqishingiz mumkin. Shunday qilib, ko'rgazma kompyuter taqdimoti shaklida bo'ladi.

Virtual ko'rgazmalarni tashkil etishga yondashuvlar juda xilma-xil: an'anaviy shakl – kitob muqovalari tasviri va nashrlarning izohlaridan tortib, muallif, rassom, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va boshqa saytlardan olingan qo'shimcha ma'lumotlar haqida batafsil ma'lumotni o'z ichiga olgan kitoblar olamiga animatsion sayohatlargacha.

Bunday holda, ko'rgazmalar kutubxonada namoyish etiladigan an'anaviy kitob ko'rgazmalarini takrorlashni to'htatadi.

Shaxsga oid ko'rgazma - biror bir shaxs to'g'risida ko'proq ma'lumot berish va uning faoliyatiga taalluqli ma'lumotlar bilan ko'rgazmani boyitish. Bunday ko'rgazmalar asosan, shoir va yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar, olimlar, siyosatshunoslar, tarixchilar va boshqalar hayoti va ijodiy faoliyatini ochib beradi. Ko'rgazmaning birinchi bo'limida shaxs hayoti va ijodi bo'yicha, ikkinchi bo'limida uning faoliyati va asarlari aks ettiriladi.

Muhim va unutilmas sanalarga bag'ishlangan ko'rgazmalar - asosan kalendarning qizil rangi bilan belgilangan sanalarga bag'ishlab o'tkaziladigan ko'rgazma turidir. Biror bir hodisa, bayram, tarixiy urf-odat, an'analar ko'rgazmada aks ettiriladi. Mashhur kishilarning hayoti va ijodiga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalari - yozuvchi, shoirning hayot yulini yoritib bersa, ikkinchidan kitobxonni uning asarlari, u haqidagi nashrlar bilan tanishtiradi. Bunda biografik ocherklar, xotiralar, asarlar to'plamlari, yozuvchi yoki shoirning ijodi to'g'risidagi tanqidiy asarlar qo'yiladi. Hujjatlarda foto-rasmlar, portretlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ushbu turdagi ko'rgazma nafaqat yubiley yoki muhim sanaga, balki mintaqaga tegishli siyosiy sanalarga ham bag'ishlangan

bo'lishi kerak. Masalan, joriy yilning 30-aprel kuni xalqimiz o'z kelajagi, mamlakatimiz ertasi uchun ovoz berish - O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan umumxalq referendumini kuni uchun shaxsiy ko'rgazma tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda mamlakatimizning barcha sohalari faoliyatiga kiritilishi ko'zda tutilayotgan yangiliklar, o'zgarishlar, saylov o'tkazilish sanasi, referendumda kimlar qatnasha olishi haqidagi eng so'nggi ma'lumotlar, rasmlar, plakatlar ko'rsatilish mumkin.

Ko'rgazma har doim ijodkorlik namunasi, kutubxonachi, kitob va kitobxonni birlashtirish imkoniyatidir.

Kutubxonada ko'rgazmalarning mavjudligi kitobxonlarga bo'lgan hurmat va ishonch ifodasidir.

Tuzuvchi:

D.Karimova

Ilmiy-metodika xizmati rahbari